

O'zbekiston Markaziy Osiyoda o'zgarishlarga yagona umid bo'lib qolmoqda — The Economist

Nashr sharhlovchilari korruptsiyalashgan tuzumni Qozog'iston inqirozining asosiy sababi deb hisoblamoqda. Shu bilan birga, quyidagi muammolar Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlariga xos ekanligi ta'kidlanadi:

xomashyo tovarlari eksportiga qaramlik;
aholining sezilarli mehnat migratsiyasi;
iqtisodiyotdagi beqarorlik;
uyushgan jinoyatchilik.

Maqolada, shuningdek, zarur islohotlarning yo'qligi beqarorlikning manbai sifatida ta'kidlanadi.

Biroq nashrning ta'kidlashicha, 2016 yilda hokimiyat tepasiga kelgan O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev:

majburiy mehnat amaliyotiga barham berdi;
oddiy fuqarolarga ko'proq shaxsiy erkinlik berdi;
mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qildi

Bu, The Economist sharhlovchilariga ko'ra, ijobiy o'zgarishlar bo'lishi mumkinligi haqidagi yaxshi xabar.

https://t.me/axborot_xizmati